Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA TRANSFORMATSIYALANISH JARAYONLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI

Bekmurodov Abbas Amiriddinovich

SamISI o'qituvchisi



Annotatsiya: Maqolada tijorat banklari faoliyatida transformatsiyalanish jarayonida raqamli texnologiyalardan birgalikda foydalanishning hozirgi holati nazariy-amaliy jihatlarini o'rganilgan. Mazkur masalaga olim va mutaxassislarining munosabatlarini tadqiq etilib, raqamli texnologiyalarni bank sektorida, shuningdek, jahonning yetakchi bank tuzilmalarida qo'llash sohalari muhokama qilingan bo'lib, bu borada bank xizmatlarini raqamlashtirish muammolari va istiqbollari yoritilgan. Olib borilgan tadqiqotlar asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: servis, raqamli bank, transformatsiya, avtomatlashtirish, tendensiya.

Abstract: The article explores theoretical-practical aspects of the current state of joint use of digital technologies in the process of transformation in the activities of commercial banks. The relations of scientists and specialists were studied and the areas of application of digital technologies in the banking sector, as well as in the world's leading banking structures, and the problems and prospects of digitization of banking services were covered in this regard. Based on the research carried out, scientific conclusions have been developed.

Key words: service, digital banking, transformation, automation, tendency.

Аннотация: В статье рассмотрены теоретико-практические аспекты современного состояния совместного использования цифровых технологий в процессе трансформации деятельности коммерческих банков. Были изучены подходы ученых и специалистов к данному вопросу, обсуждены сферы применения цифровых технологий в банковском секторе, а также в ведущих мировых банковских структурах, освещены проблемы и перспективы цифровизации банковских услуг. На основе проведенных исследований разработаны научные выводы.

Ключевые слова: сервис, цифровой банкинг, трансформация, автоматизация, тенденция.

KIRISH

Bugungi kunda bank-moliya sektorida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'sib boruvchi global tendensiyasi, bank xizmatlari sonining o'sishi hamda elektron to'lovlar va elektron tijoratning rivojlanib borishi barobarida, yurtimizda elektron to'lovlar va elektron tijorat sohasidagi qator loyihalarning amalga oshirilishi jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Bank tizimini transformatsiya qilish, ularning faoliyatini bozor tamoyillari va xalqaro standartlarga muvofiq qayta tashkil qilishning huquqiy asoslari takomillashtirilmoqda.

Transformatsiya jarayonlari xorijiy tajribani inobatga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, 2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi asosida amalga oshirilmoqda. Ushbu Strategiya kelgusi besh yillikda bank-moliya tizimini isloh qilish va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

Mamlakatimiz bank va kredit tashkilotlari internet global tarmog'i va mobil aloqa vositalari orqali o'z mijozlariga masofadan turib elektron to'lovlarni amalga oshirilishiga imkonini beruvchi vositalarni taqdim etmoqdalar. Buni butun dunyoda "raqamli bank tizimlaridan foydalanuvchilar umumiy soni 2020-yilda 2,4 milliarddan oshdi. Tahlilchilarning prognozlariga ko'ra 2024-yilga kelib raqamli bank foydalanuvchilari global miqyosda 54 foizga oshib 3,6 milliardni tashkil etadi, chunki faqatgina raqamli banklar bozorni katalizatsiya qilmoqda. Ushbu o'sishga faqat raqamli banklarning ko'payishi va o'rnatilgan bank brendlari tomonidan raqamli transformatsiyaga doimiy e'tibor qaratilishi sabab bo'ladi"¹. Shu boisdan dunyoning juda ko'plab mamlakatlarida bank xizmatlari bankka tashrif buyurmasdan masofadan boshqarish eng dolzarb masalalardan biriga aylandi.

¹ www.sciencedirect.com/journal/juniperresearch/press/digital-banking-users ma'lumotlari asosida tayorlandi.



O'zbekiston Respublikasi bank tizimida mijozlarga taqdim etiladigan elektron bank xizmatlarini ko'rsatish borasida tizimli ishlar tashkil etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 – 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmonida "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, samarali infratuzilma yaratish va banklar faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklarning asosiy faoliyat turi bilan bog'liq bo'lmagan funksiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirishga juda katta e'tibor berilmoqda. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlari turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish; nazorat yuklarini, shu jumladan, banklarning regulyator va davlat organlari bilan axborot almashinuvini takomillashtirish hamda hisobotlarni shakllantirish jarayonlarini soddalashtirish va avtomatlashtirish orqali ularni taqdim etish bilan bog'liq bo'lgan yuklarni kamaytirish; masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan, kontaktiz to'lovlar soni va qamrovini kengaytirish; avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyeridan keng foydalanish; bank ma'lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish; bank sohasidagi yangi kontseptsiya va texnologiyalarni joriy qilish"² kabi vazifalarning belgilanganligi mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini hamda masofadan turib informatsion texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan bir qator iqtisodchi olimlar o'z ilmiy izlanishlarini olib borganlar va bir nechta xorij adabiyotlarida quyidagicha fikrlar bayon etganlar:

L. Vessels va J. Drennan masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishga ta'sir etadigan omillarni o'rganib ushbu xizmatlardan foydalanish mijozlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi degan xulosaga kelgan. Ya'ni yangi texnologiyalarni qo'llashda xavf qanchalik baland bo'lsa, foydalanuvchilarga salbiy ta'siri yuqori bo'ladi³.

Tijorat banklari raqobatli bank muhitida nafaqat mijozlarini saqlab qolish, balki oshirib borish uchun doimiy ravishda yangiliklardan samarali foydalanish va takomillashtirib borish ham muhim. Bunda bank foydalanuvchilar uchun qulay platformalar, xizmatlar paketi, bonusli takliflarni oshirish bilan birga tezkor xizmat ko'rsatishni ham taqozo etadi.

Bundan tashqari, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish va takomillashtirish bo'yicha xorijiy olimlardan A. Syabarrudinc, A. Eliyanab, A. Bastaria, Z. Ariefd, A. P. Emur⁴, W. Wodo, P. Blaskiewicz, D. Stygar, N. Kuzmalar⁵, mahalliy olimlardan H. X. Jumayev, H. Sharipova, A. Qosimova, Z. Mamadiyarov, O. Melikovlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Matej Marincning fikricha "ITlar bank va ularning aloqalarini rivojlantirib, faoliyatni tezkor ravishda qayta loyihalashtirishga imkon beradi"⁶. Olimning fikri juda ham o'rinli bo'lib bank faoliyatini ilg'or IT texnologiyalar bilan chambarchas bog'lagan holda amalga oshirib borish, bank xarajatlarini kamaytirishga va mijozlar sonini ortishiga xizmat qilishi bilan birga tijorat banklarining mijozlarga bank xizmatlari paketini taklif qilishga imkon yaratadi.

F. O'. Dodiye, D. R. Yusupova masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi bank xizmatlari tizimida yangi hajmdagi va yangi shakldagi turli xizmatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lishi hamda ushbu xizmat turlari ko'paygandan so'ng ularni auditdan o'z vaqtida sifatli o'tkazishni ham taqozo qiladi deb hisoblashadi⁷.

Chien-Chiang Lee, Chin-Wei Wang, Shan-Ju Ho moliyaviy innovatsiyalarni institutsional muhit o'zaro munosabatlaridagi ta'sirini uchga ajratadilar. Birinchidan, moliyaviy innovatsiyalar darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarning tijorat banklarida aktivlar, kreditlar va foydaning o'sishi yuqori bo'ladi. Ikkinchidan, banklar faoliyatini tartibga solish, moliyaviy islohotlar va mamlakat boshqaruvining samaradorligi moliyaviy innovatsiyalar va banklarning o'sishi o'rtasidagi aloqani susaytiradi. Uchinchidan, jahon bank-moliya tizimidagi globallashtirish ushbu munosabatlarni mustahkamlashga intiladi⁸.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmon.

3 Wessels, L., Drennan, J., 2010. An investigation of consumer acceptance of Mbanking. *International Journal of Bank Marketing* 28 (7), 547–568.

4 Bastaria A., Eliyanab A., Syabarrudinc A., Ariefd Z., Emur A. P. (2020). Digitalization in banking sector: the role of intrinsic motivation // *Heliyon*. Volume 6, Issue 12, e05801. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2020.e05801>

5 Wodo W., Blaskiewicz P., Stygar D., Kuzma N. (2021). Evaluating the security of electronic and mobile banking // *Computer Fraud & Security*. Volume 2021, Issue 10, Pages 8-14. [https://doi.org/10.1016/S1361-3723\(21\)00107-X](https://doi.org/10.1016/S1361-3723(21)00107-X)

6 Matej Marinc. Banks and information technology: complexity, flexibility, and interconnectedness, 2011, <https://www.researchgate.net/publication/266465168>

7 Dodiye F. O', Yusupova D. R. O'zbekistonda banklar faoliyatini innovatsion rivojlantirish // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. №5, oktyabr, 2020-yil.

8 Chien-Chiang Lee, Chin-Wei Wang, Shan-Ju Ho. Financial innovation and bank growth: The role of institutional environments // *The North American Journal of Economics and Finance*. Volume 53, July 2020, 101195



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy fikrlash, monografik kuzatuv, iqtisodiy tahlil usullari va matematik formulalardan foydalanildi. Ushbu usullar yordamida mavzuga doir ilmiy adabiyotlar tanqidiy o'rganildi, amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar takomillashtirish nuqtayi nazaridan tadqiq etildi, banklar amaliyotida transformatsiya o'tkazish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-son Qarorida "bank faoliyatining ilg'or xalqaro tajribasini o'rganish hamda, bank xizmatlari va mahsulotlarining yangi turlarini joriy etish vazifasi berilgan"ligi elektron bank xizmatlarini rivojlantirish juda muhimligidan dalolat beradi.

Hozirgi davrda O'zbekistonda bank xizmatlari bo'yicha tijorat banklarida boshlang'ich moliyaviy holatini tahlil qilishning o'ziga xos tizimi tashkil qilingan. Shuningdek, tijorat banklari Markaziy bankka har oy faoliyatining ko'p sohalarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar, balans hisoboti, iqtisodiy normativlar hisob-kitobi, foyda va zararlar hisobotlarini taqdim etadilar. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari oldiga bozor kon'yukturasi o'zgarishi talablariga moslashgan holda moliyaviy – iqtisodiy murakkabliklarni engish, banklararo raqobat kurashida raqobatbardosh bo'lish hamda ular faoliyatini yanada rivojlantirish vazifalarini qo'yimoqda.

Ma'lumki, tijorat banklari faoliyatiga real baho berish va omonatchilar, kreditorlar va investorlarning bank faoliyati to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishlarida audit tekshirishlari muhim ahamiyatga egadir. Audit tushunchasi – tijorat banklari faoliyatining yakunlarini xolisona baholash bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liqdir. Chunki rejali xo'jalik yuritish usulida to'la mustaqil bo'lmagan tijorat banklarni audit qilishga zaruriyat yo'q bo'lib, ularni taftish qilish kerak edi. Shuning uchun barcha davlat vazirliklarida taftish boshqarmasi mavjud bo'lib, bu boshqarmalar rejali xo'jalik yuritishda muhim rol o'ynagan.

Bank auditini zaruriyligi banklarning bankrotlik riskiga juda yaqinlik bilan belgilanadi, bunda bitta bankning bankrotligi bir necha soha subyektlari bo'lmish kreditorlar va mijozlarning bankrotligiga olib kelishi yoki boshqa banklar faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Chunki iqtisodiyotda barcha soha subyektlari o'zaro zanjirli bog'liq hisoblanadi.

Jahon miqyosida bank tizimida raqamli munosabatlarining kuchayib borishi bilan raqamli iqtisodiyot va moliyaviy texnologiyalarning keng tatbiq etish, tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish natijasida moliyaviy xizmatlarning ommabopligi oshirish, moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini shakllantirish, bozor tamoyillari bo'yicha xizmat ko'rsatishni modernizatsiyalash, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlar keng joriy qilinish asosida bank tizimining moliyaviy barqarorlik darajasi ko'tarish, tijorat banklarida xalqaro transformatsiyalash jarayonini jadallashtirish, banklarni transformatsiya qilish sharoitida mijozning to'lov qobiliyatini skoring usulda baholash asosida masofaviy bank xizmatlari bilan bog'liq risklarni boshqarishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi⁹ PF-6079-sonli Farmonida raqamli bank tizimini rivojlantirish hamda banklar tomonidan mijozlarga masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish ko'lamini va sifatini oshirish, shuningdek, 2020-yil 12-may "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi¹⁰ PF-5992-sonli Farmonida bank sohasidagi yangi konsepsiya va texnologiyalarni joriy qilish (fintex, marketpleys, raqamli bank) kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Bugungi kunda O'zbekiston raqamli iqtisodiyotning rivojlanish bosqichida desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston fintex ekotizimining joriy holati o'zida 2 ta to'lov protsessing xizmati (Humo, Uzcard), 10 dan ortiq to'lovlarni amalga oshiruvchi kompaniyalar (2 tasi telekomga tegishli), 30 ga yaqin bank mobil ilovalari, shuningdek, CLICK, Payme va PAYNET kabi nobank provayderlar hamda 5dan ortiq raqamli bank (Anorbank, "Uzumbank", Smartbank", "Apexbank" "HayotBank" "Yangibank" "TBCbank") ni namoyon etadi. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanib borishi sharoitida banklar naqd pul bilan ishlash jarayonidan elektron pullar bilan ishlash jarayonlariga moslashib bormoqda. Bu esa o'z navbatida, banklar raqamli formatda o'z mijozlariga xizmat ko'rsatish usullarini qayta ko'rib chiqish zarurligini namoyon qiladi. Mazkur tadbirlar bank va uning filiallariga tashriflar sonini kamaytirish, ish hajmini kamaytirish, shuningdek, mijoz va tranzaksiyalar sonini oshirish imkonini beradi. Quyidagi jadval ma'lumotlari orqali O'zbekistonda distansion bank xizmatlaridan (internet-banking va mobil-banking xizmat turlari yordamida bank hisobvaraqlaridagi pul mablag'larini boshqarish, USSD so'rov yordamida bank plastik kartalaridagi mablag'larni boshqarish, sms xabarnoma yordamida hisobvaraqdagi pul mablag'lari harakati) foydalanuvchilar soni to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

9 <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

10 <https://lex.uz/docs/-4811025>

1-jadval: Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilarning soni¹¹

№	Foydalanuvchilar	Yillar				
		01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.11.2023
1	Yuridik shaxslar va YaTtlar	691008	822518	968580	1157045	1311418
2	Jismoniy shaxslar	9462450	13748576	19234804	28843869	38024230
	Jami	10153458	14571094	20203384	30000914	39335648
3	Aholi soni, ming kishi	33905,2	34558,9	35271,2	36024,9	36600,0
4	Aholi soniga nisbatan jismoniy shaxslar tomonidan masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar salmog'i, foizda	27,9	39,8	54,9	80,1	103,8

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, jismoniy shaxslar tomonidan masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni doimiy aholi soniga nisbatan 2020-yil 1-yanvar holatiga 27,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2023-yil 1-noyabrda qariyb 103,8 foizga yetgan. Bu tendensiya o'z navbatida ijobiy holat bo'lib hisoblanadi. Mazkur jarayonlarni jadallashtirish O'zbekistonda bugungi kunda raqamli texnologiyalarning rivojlanishini ta'minlash hamda moliyaviy texnologiyalar bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar sonini oshirib borishni taqozo etadi.

Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish asosan hukumat qarori Markaziy Bank monetar siyosati yo'nalishlari, qonun hujjatlari, Markaziy Bank yo'riqnomalari asosida olib boriladi. Huquqiy-iqtisodiy me'yorlarni o'rnatilishi banklarni bankrotlik chegarasidan ogoh etib turadi. Bu esa, sifatsiz yoki yomon boshqaruvga ega banklar faoliyatini tartibga solish uchun juda muhim. Bank faoliyatini huquqiy bazasini mustahkam emasligi banklarning bankrot bo'lishiga hamda butun bank sferasini inqirozga olib kelishi mumkin. Bank tizimini ishonchli va samarali tartibga solib turuvchi huquqiy me'yorlar majmuasi yaratilishi va barcha banklarga bir xil qo'llanilishi lozim. Aks holda ayrim banklar erkin raqobat muhitidan chetda qolib ketadi.

Iqtisodiyotning yangi bozor munosabatlariga o'tishida faoliyat ko'rsata oladigan tijorat banklari tizimini shakllantirish davr talabi hisoblanadi. Mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar natijasida turli mulkchilikka asoslangan tijorat banklari tizimi vujudga keldi. Xalqaro tajribaga tayangan holda bank tizimining isloh qilinishi natijasida xalqaro standartlar talablariga ko'ra, ularning boshqaruv infratuzilmasi, nazorat tizimini shakllantirish bilan bog'liq muammolarini hal qilishga erishildi. Bazel qo'mitasining talablariga binoan bank boshqaruvi faoliyati va nazorati tizimini evolyutsion yo'l bilan takomillashtirish borasida yagona davlat siyosati yurgizilib qator me'yoriy hujjatlar majmuyi yaratildi. Natijada bank amaliyotiga tashqi nazorat monitoringi va mustaqil audit kabi tushunchalar kirib keldi.

Bank tizimidagi islohotlarning chuqurlashuvi moliyaviy resurslarni oqilona boshqarish usullari va vositalaridan kengroq foydalanish, tijorat banklari faoliyatini muvofiqlashtirishda esa bevosita va bilvosita nazorat vositalarini keng qo'llanishini taqozo etadi. Shu bois Markaziy bank tijorat banklari va ularning filiallari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini vaqti-vaqti bilan muntazam nazorat qilib turishga katta e'tibor qaratmoqda. Shunday nazorat turlaridan biri bu kredit tashkilotlarining prudensial nazoratidir. Prudensial nazorat – bank nazoratining, tarkibiy qismi bo'lib, u bank tizimi barqarorligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan iqtisodiy me'yorlarga banklar qanchalik rioya etayotganini nazorat qiladi. "Prudensial" tushunchasi ehtiyotkor, uzoqni ko'radigan degan ma'nolarni anglatib, "nazorat" so'zi bilan birga qo'llanilganda kredit tashkilotlari faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlar va muammolarni bartaraf qilishga imkon beruvchi masofadan nazorat ma'nosini anglatadi.

Amaliyotda ayrim tijorat banklari ko'proq foyda olish maqsadida xatarlarga asoslangan faoliyat yuritishga moyil bo'ladi. Bunda ular o'z manfaatlari doirasida harakatlanib, omonatchilar, kreditorlar hamda bank aksiyadorlarining qonuniy manfaatlarini inobatga olmasliklari mumkin. Yuqorida keltirilgan tomonlarning manfaatlarini himoya qilish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida Markaziy bank nazorat qiluvchi organ sifatida maydonga chiqadi. Markaziy bankning nazorat funksiyalari "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunda belgilangan bo'lib, Bank nazorati qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda Markaziy bank tijorat banklari moliyaviy holatining yomonlashishini oldining olishga qaratilgan tegishli shart-sharoitlar yaratilishi va ular faoliyatini belgilangan talablarga muvofiq yuritilishini kuzatib boradi. Buning uchun tijorat banklarida yuzaga keladigan yoki kelishi mumkin bo'lgan xatarlar, shuningdek, regulativ moslik mexanizmlaridan foydalangan holda, ushbu xatarlarni oqilona boshqarish va bartaraf etish bo'yicha nazorat olib boriladi. Iqtisodiy me'yorlarga rezerv talablari, kapital, likvidlik, valyuta pozitsiyalariga bo'lgan talablar hamda xatarlardan kelib chiqib, ma'lum operatsiyalarga cheklovlar va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha normativlar kiradi.

11 www.cbu.uz ma'lumotlari asosida tayorlandi.



Ushbu me'yorlarni bajarishda tijorat banklari bank operatsiyalari bo'yicha tegishli rezervlarni shakllantiradi va shu orqali xatarlarni omonatchilar, kreditorlar va boshqa bank xizmatlari iste'molchilariga o'tkazilishining oldi olinadi.

Misol uchun, banklar tomonidan kapitalni yetarli darajada shakllantirilishi kutilmagan yo'qotishlarni qoplash manbasi bo'lib xizmat qiladi hamda ularning institutsional o'sishini ta'minlaydi. Likvidlikka qo'yilgan talablar esa mijozlarga uzluksiz xizmat ko'rsatish va depozitorlar talablarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, prudensial nazorat bank xizmatlari iste'molchilarining qonuniy manfaatlarini ta'minlash doirasida tijorat banklarini sog'lom bank faoliyatini olib borishga va ayrim banklarda nosog'lom muhitni bartaraf etishga qaratilgan.

XULOSA

Tijorat banklarining moliyaviy xizmatlarni raqamli iqtisodiyotning yangi shartlari va afzalliklariga integratsiyalashuv jarayon bo'lib, unga ko'ra banklarda raqamli texnologiyani keng va har bir mijozlar guruhiga moslashuvini ta'minlash orqali jamiyatda insonlarning bank xizmatlaridan foydalanish darajasini yaxshilash, qulayliklar yaratish, xizmatlar sifatini oshirish va ma'lumotlarini xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi.

Tijorat banklarida xalqaro transformatsiya jarayonlarini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirish yo'nalishlarini tahlil etish jarayonida quyidagi xulosalar olindi:

- Tijorat banklarida internet-banking xizmat turi bo'yicha marketing bo'limlarini tashkil qilish orqali mijozlarni kengroq qamrab olish va ularni ushbu xizmat turidan xabardorligini ta'minlash lozim;
- Yangi bank xizmatlari bilan ishlashda malakali axborot texnologiyalari va bank xizmatlarini birday yaxshi tushunadigan kadrlarni tayyorlash;
- Tijorat banklarini xizmatlar ommabopligini oshirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalana oladigan kadrlarni chet elda malaka oshirishini tashkil etish;
- Moliyaviy texnologiya yechimlaridan foydalangan holda masofadan identifikatsiya qilish tizimini yanada takomillashtirish;
- Mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiylik tizimini mustahkamlash;
- Manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kamxarj xizmat ko'rsatish nuqtalari tarmog'ini rivojlantirish olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" PF-5992-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.
4. Rahia S. et al. Integration of unified theory of acceptance and use of technology in internet banking adoption setting: Evidence from Pakistan // *Technology in society*, Vol. 58 (2019), 101120, 2 p.
5. Дубинин М. В. Банковские технологии: сущность, история развития и перспективы // *Финансы и кредит*. №34 (274), 2007. – 58 с.
6. www.sciencedirect.com/juniperresearch/press/digital-banking-users ma'lumotlari asosida tayyorlandi.
7. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy veb-sayti.
8. Bekmurodov A. A. Improving The Introduction Of Digital Technologies In Commercial Banks // *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*. – 2021. – T. 9. – №. 10. – S. 355-357.
9. Bekmurodov A. A The Impact Of Transformation Processes On The Activities Of Commercial Banks // *Archive of Conferences*. – 2021. – S. 52-54.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.